

Ilmiy yangiliklar sari ochiq muloqot

Joriy yilning 13 iyun kuni "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakultetining bir guruh yoshlari bilan V-binoning 8-ma'ruzalar zalida institut Ilmiy - tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy - pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Sh. Imomov, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi hamda Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi xodimlari bilan birgalikda uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuv mobaynida bevosita talabalar bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Sh.Imomov so'zga chiqib hozirgi kunda yaratilayotgan yangiliklar, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor to'g'risida aytib o'tdi. Sh. Imomov talabalarning qiziqishlari, g'oya-takliflarini eshitgan holda, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga to'g'ri yo'naltirish va o'quv jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash masalalariga alohida to'xtalib o'tdi. QSXET fakulteti dekani A.Isakov fakul'tet iqtidorli yoshlarini yuzaga chiqarish va ularni har tomonlama qo'llab-quvatlash, ularning ilmiy yangilik hamda g'oyalarini to'g'ri yo'naltirish zarurligini ta'kidladi. Uchrashuv mobaynida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar va o'z takliflarini bildirdilar.



**Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi metodisti Z.Temirova
axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov